



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Xx Asr Ikkinchi Yarmi O‘zbekiston Madaniy Hayotida Ziyolilarning O‘Rni Va Roli**

**B. U. Bokiyev**

PhD, professor v/b., Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va unda faoliyat olib borgan ziyolilarning kommunistik mafkura g‘oyalari ilgari surilgan nihoyatda og‘ir sharoitda ham xalqimizning o‘tmish tarixini, milliy an‘analari, milliy udumlarini tarannum etganligi, ularning sa‘y-harakatlari bilan badiiy jihatdan yuksak, milliy ruh va g‘urur bilan sug‘orilgan yuksak saviyadagi asarlar yaratilganligi, bu asarlar o‘zbek xalqi ma‘naviyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi va yoshlar ongida Vatanga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘usini shakllanishiga ko‘maklashganligi bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ziyo, ziyokor, ziyoli, bilim, madaniyat, ilm-fan, oqil, aql egasi, taraqqiyot, ilm-ziyo, ijodkor, mafkuraviy buzg‘unliklar, kelajak, o‘zbek adabiyoti, respublika, mustamlakachilik tuzumi, oliy ne‘mat, ozodlik, mustaqillik.

Ma‘lumki, millat ma‘naviy madaniyati sohibi va uni kelajak avlodlarga yetkazuvchi muhim qatlam bu – ziyolilardir. Ilmiy adabiyotlarda uqtilganidek, jamiyatning madaniy hayotida milliy ziyolilar ulkan rol o‘ynaydi, ularning vakillari xalq o‘rtasida “ziyoli”, “ziyolilar” (eski o‘zbekcha “ziyo” – yorug‘lik, nur, nurlanish)dir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ta‘kidlanganidek: “**Ziyo** (a.) – nur, yiltirash. 1. Yorug‘, yorug‘lik, nur. 2. Bilim, madaniyat, ilm olgan yorituvchi har qanday narsa. **Ziyokor** (a+f.) – ziyo, bilim tarqatuvchi. Ilm tarqatuvchi, ma‘rifatparvar, bilim targ‘ib qiluvchi. **Ziyoli** – aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi, ilmli, o‘qimishli, ma‘rifatli”.

Kengroq ta‘riflansa, ziyoli atamasi ma‘naviy barkamol inson, ilmli, o‘qimishli, ma‘rifatli shaxs ma‘nolarini anglatadi. Kundalik hayotda ziyoliga nisbatan “intelligent” iborasi ham qo‘llanadi. Bunda ko‘proq o‘sha shaxsning bilim darajasi, tafakkuri, qolaversa, ma‘naviy darajasi nazarda tutiladi. Zero, “intelligent” atamasi “intellekt”, aql bilan bog‘liq va demakki, aslida o‘zbeklarning “oqil”, “aql egasi” so‘zlari bilan ma‘nodoshdir.

Shu bilan birga tadqiqotlarda “ziyoli” tushunchasiga ta‘rif berilar ekan jumladan, “ziyolilar” deganda ijtimoiy tizimda muayyan o‘ringa ega bo‘lgan, asosan aqliy mehnat bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy tabaqa tushuniladi. Ziyolilar shu yo‘l orqali o‘z xalqini ozod, erkin va doimo mustaqil hayot kechirishga undaydi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov chiqishlarida soʻzlagan nutqlarida ziyolilarning jamiyatda tutgan oʻrni va mavqei qanday boʻlishi lozimligiga oʻz davrida katta eʼtibor qaratib, "... Ilmu-fan taraqqiyoti biz uchun eng ustuvor yoʻnalishlardan biridir. Bu sohada xizmat qiladigan odamlarning saviyasi, obroʻsi haqida gʻamxoʻrlik qilishimiz, ularning hayotimizga qoʻshadigan xissasiga qarab eʼtibor berishimiz shart. ... Modomiki, ilm-ziyo ahli bizdan koʻproq biladigan, uzoqroqni koʻradigan, teranroq oʻylaydigan kishilar ekan, ularning joyi toʻrda boʻlishi kerak", - deya taʼkidlagan edi.

Darhaqiqat, oʻzga toifalarga nisbatan ziyolilarning yuki ogʻir. Ziyoli olim boʻlsa, hayotni ilmiy asosda tadqiq etadi, shu asosda tavsiyalar beradi. Shoir yoki adib boʻlsa, voqelikning muayyan qirralarini badiiy timsollarda aks ettirib, ibrat yoʻli bilan odamlarga ijobiy taʼsir etishga urinadi.

Afsuski, hukmron kommunistik mafkura sovet davrida Ittifoq tarkibida boʻlgan boshqa xalqlar singari oʻzbek xalqini ham oʻz milliy tarixi, madaniyati va qadriyatlaridan uzoqlashtirishga harakat qilib keldi. Kommunistik partiya va sovet hokimiyati sotsialistik realizm gʻoyasi asosida ijodkor ziyolilarni hamisha oʻzining mafkuraviy taʼsiri ostida saqlashga intilgan edi. Bu jarayon ayniqsa, urushdan keyingi yillarda yanada kuchli tus oldi. Adabiyot va fan namoyandalari, xususan, 1946-1952 yillarda juda ogʻir kunlarni oʻz boshlaridan kechirdilar.

Ijodkor ziyolilar Oʻzbekiston Yozuvchilari uyushmasining 1951 yil avgust oyida boʻlib oʻtgan oltinchi plenumida yana ham qattiqroq tanqidga uchradilar. Yozuvchilar uyushmasi raisining maʼruzasi boshidanoq "ayrim yozuvchi va shoirlar ijodidagi mafkuraviy tusdagi kamchiliklarni tanqid" qilishga bagʻishlandi. Jumladan, maʼruzada Shayxzoda asarlarida "sotsialistik voqelik, sovet kishilarining obrazlari buzib tasvirlangan", deb taʼkidlandi. Uning asarlari tilida esa, "arabcha, eroncha, turkcha soʻzlar koʻp boʻlib, bular ham diniy ruhdadir", deb taʼkidlandi. S.Abdullaning "Alpomish" pesasi feodal oʻtmishni ideallashtiradigan zararli asar, deb eʼlon qilindi. Taʼkidlash kerakki, bu asar tomoshabinlarga juda maʼqul boʻlgan edi.

Oʻzbekiston Kompartiyasi MQning 1951 yil 8 apreldagi "Oʻzbekiston SSSRda musiqa sanʼatining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorida oʻzbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari, "Tohir va Zuhra", "Alpomish" xalq dostonlarining afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda koʻrsatish "zararli" ish deb baholandi. Bunday spektakllarni sahnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostiga olindi.

1951 yil 10 avgustda respublika matbuotida "Baʼzi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy buzgʻunliklar toʻgʻrisida" degan maqola chop qilinib, unda Kamtar Otaboev, Turob Toʻla, A.Bobojonov, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiylar millatchilar deb nohaq tanqid qilindi. Shundan keyin "Oʻzbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda" degan maqola eʼlon qilindi, unda oʻzbek adabiyotining Oybek, H.Zaripov, H.Yoqubov, I.Sultonov va boshqa arboblari "jiddiy mafkuraviy xatolar va buzgʻunlik"da ayblandi.

Chunki bu davrda I.Stalin shaxsiga sigʻinish keng tus olgan edi. "Sotsialistik realizm" gʻoyasi asosida shusiz ham erki va ovozi iskanja ostida qolgan ijodkorlarni yanada cheklash va tutqunlikda saqlash maqsadlarini koʻzlab, Stalinning rahnomoligida VKP(b) MQning bir qator qarorlari qabul qilindi. Xususan, 1946 yil 14 avgustdagi "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqida, "Dramatik teatrlarning repertuarlari va ularni yaxshilash choralari haqida", 1948 yilda "Ulugʻ doʻstlik operasi" haqida va boshqa qarorlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Ushbu qarorlarda, "Pravda" gazetasi va "Kommunist" jurnallarida ham bir qator tanqidiy ruhdagi rasmiy maqolalar adabiyot, sanʼat va madaniyat sohalaridagi yutuqlar bilan birga "jiddiy kamchiliklar" toʻgʻrisida qatʼiy fikrlar bayon etildi. Jumladan, Ushbu sohalardagi gʻoyalar badiiy jihatdan past va hatto "umidsizlik", kelajakka ishonchsizlik ruhi bilan sugʻorilgan, gʻoyaviy "zararli" asarlar paydo boʻlganligi tanqid qilingan edi. Qator yillar davomida (1947 yil falsafa, 1948 yilda biologiya, 1950 yilda fiziologiya va tilshunoslik va 1951 yilda siyosiy iqtisod) fan va madaniyat masalalari boʻyicha oʻtkazilgan munozaralarda partiya MQsining oʻzi boshchilik qildi. Bunda fanning barcha sohalarida "xalqlar dohiysining" asarlaridagi "qimmatli va noyob nazariy

xulosalari”dan chetga chiqmaslik lozimligi ilgari surildi. Bunday vaziyat barcha ziyolilarni tushkunlik kayfiyatiga solib qo’ydi. Shuning uchun ham 1940-yillarning oxirlari va 1950-yillarning boshlariga kelib respublika adabiy muhitida o’ziga xos ijodiy tushkunlik ko’zga tashlandi. Xususan, 1946-1952 yillar davomida jami bo’lib o’zbek tilida 5 ta roman, 6 ta povest, 7 ta hikoyalar to’plami, 3 ta pesa, 1 ta bolalar uchun pesa e’lon qilingan bo’lib, ular Oybekning “Navoiy” (1947 yil), “Qutlug’ qon” (1948 yil), “Oltin vodiyan shabbodalar” (1950 yil), S.Ayniyning “Qullar” (1952 yil), Abdulla Qahhorning “Qo’shchinor chiroqlari” (1952 yil) kabi romanlari edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda o’zbek adabiyotiga qilingan siyosiy bosim sababli o’ziga xos bo’lgan yo’nalish “xalq dohiysini”, “Kommunistik partiyani”, “ulug’ rus xalqini”, “sovet tuzumini” ko’klarga ko’tarib maqtash urfga aylandi. Shu bois aksariyat o’zbek adabiyoti ijodkorlarining katta qismi mavzuga kommunistik mafkuradan kelib chiqqan holda yondashishga majbur bo’ldi.

Kommunistik mafkura g’oyalari ilgari surilgan nihoyatda og’ir sharoitda ham xalqimizning o’tmish tarixini, milliy an’analari, milliy udumlarini tarannum etgan ijodkor ziyolilar ham faollik ko’rsatishdi. Partiyaviy-g’oyaviy tizginga qaramasdan adabiyot va san’at sohasida ko’zga ko’rinarli asarlar yaratildi. Shu o’rinda, Oybek, O. Yoqubov, P. Qodirov, S. Ahmad, X. To’xtaboyev, A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, A. Suyun, H. Xudoyberdiyeva, O’. Hoshimov, O. Matchon, Sh. Rahmon va yana boshqa o’nlab yosh ijodkorlarni misol qilib aytish mumkin. Ularning sa’y-harakatlari bilan 1960-1980 yillar oraliq’ida badiiy jihatdan yuksak, milliy ruh va g’urur bilan sug’orilgan yuksak saviyadagi asarlar yaratildi. Bu asarlar o’zbek xalqiga juda katta ma’naviy ozuqa berdi. Yoshlar ongida Vatanga nisbatan mehr-muhabbat tuyg’usini shakllanishiga ko’maklashdi. Bu ijodiy muhit 60-yillardan adabiyotda yangi avlod paydo bo’lishiga zamin hozirladi.

Shu o’rinda ijodkor Erkin Vohidov haqida so’z borar ekan, uning badiiy ijodi ikki xususiyati bilan o’zga ijodkorlardan alohida ajralib turadi. Birinchidan, xalqimizning ming-ming yillik tarixiga ega bo’lgan mumtoz adabiyot an’analariga falsafiy yondashib fikr yuritadigan va yangicha ruh bag’ishlagan shoir sifatida ta’riflanadi. Ikkinchidan esa inson va jamiyat muammosi shoir she’riyatining bosh mavzusi hisoblanadi. Uning “Inson” she’rida xoh tabiat haqida, xoh jamiyat muammolari, xoh sevgi-muhabbat haqida bo’lmasin etakchi o’rinni inson egallaydi. Erkin Vohidov ijtimoiy tuzum mohiyatini chuqur anglaydi. Avtoritar rejim unga yoqmaydi. Davr fojiasini yuksak mahorat bilan kutilmagan tashbehlarda ifoda etadi. Xususan, “Majlis qiling” she’rida to’rachilik va rasmiyatchilikni tiniq, xalqchil tilda, oddiy va sodda qilib tushuntiradi.

Shuningdek, O’zbekiston xalq shoirasi, SSSR Davlat mukofotining laureati, Hamza nomli respublika Davlat mukofoti, Javoharlal Neru va Xalqaro “Nilufar” mukofotlarining laureati Zulfiya o’zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Shoira Zulfiya davrimizning qahramoni, zamondoshlarimiz, xotin-qizlarimiz baxt-iqbolini baralla kuylagan yorqin talant sohibidir. Yozuvchi Nikolay Tixonov “Bizning qalin do’stimiz, aziz Zulfiya yangi o’zbek she’riyatining ilk bulbulidir. U yorug’likka chiqqan o’zbek ayollarining ozod mehnatini, yangi hayotga dadil qadam bosgan xotin-qizlarni, suyukli yurtini, uning ajoyib tabiatini to’lib-toshib kuylaydi”, – deb shoiramizni juda yuksak baholagan. “Zulfiyaning qirq yildan ortiqroq ijod mahsulini jam qilib, uning tub mohiyatini bir og’iz so’z bilan ifoda qilmoqchi bo’lsak, bu ijodning bosh mavzusi – erkin Sharq ayolining erishgan beqiyos baxti, shoiraning barcha asarlari shu baxt madhiyasidir”.

Zulfiyaning ijod xazinasini boy bo’lib, shoira 40 dan ortiq asar muallifidir. Uning jo’shqin lirikasi, poemalari, badiiy ocherklari, ehtirosli publitsistikasi, go’zal tarjimalari, librettolari o’zbek adabiyoti xazinasini boyitib kelmoqda. Zulfiya asarlari rus, tojik, turkman, qirg’iz, qozoq, tatar, qoraqalpoq va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Umuman olganda, tarixiy an'anaga ko'ra, 1946-1985 yillarda o'zbek badiiy ijodiyotida qalam tebratgan va o'zining serqirra, sermazmun faoliyati bilan xalqimizning ma'naviy madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ijodiy ziyolilari ko'p bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijodiy ziyolilaridagi o'zlikni anglash jarayoni XX asr 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab ancha jonlangan bo'lsada, undagi imkoniyatlarning oshib borishi ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarga borib taqaladi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, ziyolilar sovet mustabid tuzumi sharoitida vujudga kelgan turli-tuman muammolarni ijobiy hal etishga harakat qildilar. Lekin respublikadagi barcha ziyolilarni yuqoridagi harakatlarga astoydil o'z hissalarini qo'shgan deb bo'lmaydi. Milliy g'ururini unutmagan yoki anglamagan holda o'z xalqining taqdiriga loqayd munosabatda bo'lgan ba'zi "jonkuyarlar" ham millat orasida topilgan. Shuningdek, ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini xolis baholash kerak bo'ladi. Chunki ular o'zlari talab qilgan yoki harakat qilgan masalalarning ko'pchiligini hal eta olmaganlar. Sababi, mustamlakachilik tuzumi davrida buning iloji yo'q edi. Bularni barchasiga erishish uchun oliy ne'mat – ozodlikka, mustaqillikka erishish zarur edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хасанов Б.В. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы (1917 г. – начала 50-х годов). Дисс... докт. ист. наук. – Ташкент: 2000. – С. 50.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик, 2-ж. – Тошкент: ЎЗМЭ ДИН, 2006. – Б. 147.
3. Маънавият – асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги НМИУ, 2010 – Б. 177.
4. Исоқов Б. Зиёлилик масъулияти. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б. 7.
5. Алихонов М. Ўзбекистон ижодий зиёлиларининг мустақилликни қўлга киритиш ва уни мустақамлаш давридаги фаолияти (1985-2000 йиллар). Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент: 2007. – Б. 6.
6. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994. – Б. 172-173.
7. Эргашева Ю.А. Ўзбекистон зиёлиларига қарши ғоявий зуғум ва катағонликлар // ҚарДУ Хабарлари, 1-сон. 2019. – Б. 183.
8. О'z RDA, 58-fond, 27-ro'yxat, 54-yig'ma jild, 151-152-varaqlar.
9. О'z MA R-2356-fond, 1-ro'yxat, 31-ish, 9-varaq.
10. О'z MA, R-2364-fond, 1-ro'yxat, 270-ish, 67-68-varaqlar.
11. Жўраев Н, Каримов Ш. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: “Шарқ”, 2011. – Б. 553.
12. О'z MA, R-2356-fond, 1-ro'yxat, 330-ish, 81-varaq.
13. О'z MA, R-2356-fond, 2-ro'yxat, 527-ish, 1-40-varaqlar.
14. О'z MA R-2356-fond, 1-ro'yxat, 31-ish, 14-varaq.
15. Uktamovich B. B. The Impact of Uzbek Creative Intellectuals on Cultural Life in the Second Half of the XX Century. – 2023.
16. Uktamovich B. B. CONTRIBUTIONS OF CREATIVE INTELLECTUALS IN THE FIELD OF SCIENCE TO THE FIELD OF EDUCATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 255-259.
17. Uktamovich B. B. Uzbek Creative Intelligence-History and Today //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – Т. 8. – №. 04. – С. 109-112.